# JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

SJIF 2023: 3.778, 2024: 5.073
RESEARCHBIB IMPACT FACTOR: 6.4 / 2023

Research Science and Innovation House

## OUR FIELDS

- Exact Sciences
- Natural sciences
- Medical sciences
- Technical sciences
- Economics
- Philological sciences
- Pedagogical sciences
- Social and humanitarian sciences
- Psychological sciences
- Arts and cultural sciences
- Physical education and sports

ISSN (E): 2181-4570

## OUR INDEXING

doi ISSN ResearchGate OpenAIRE DRJI Google Scholar zenodo ADVANCED SCIENCE INDEX Academic Resource Index ResearchBib inLibrary

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH
JUSR
2023

- http://universalpublishings.com

Research Science and Innovation House

"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE" MCHJ

# JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

MAY 31, 2024

VOLUME 2, ISSUE 5

Academic Resource Index ResearchBib doi ISSN OpenAIRE inLibrary Google Scholar zenodo ADVANCED SCIENCE INDEX DRJI

+998888082107 http://universalpublishings.com editor@universalpublishings.com

ISSN E: 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

**"Journal of Universal Science Research" scientific-methodical journal: 31.05.2024.**

In this collection, the articles accepted for the **"Journal of Universal Science Research"**, Volume-2, Issue-5, 2024, are published.

**DOI** number was attached to all articles in the journal and indexed in the international scientific bases of **Directory of Research Journals Indexing**, **Researchbib**, **Index Copernicus**, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar**, **Advanced Science Index, J-Base, Cite Factor, International Scientific Indexing, Euarasian Scientific Journal Index, General Impact Factor, Internet Archive, Scientific Journal Impact Factor, EuroPub.**

Dissertations are officially recognized as articles published in national journals on the list of journals recommended to publish the main scientific results of dissertations by OAK.

**Basis**: Page 3 of the list of scientific publications recommended to publish the main scientific results of dissertations of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent: 2019. - 160 p

The materials of the magazine can be used by professors, teachers, independent researchers, doctoral students, masters, students, lyceum colleges and school teachers, scientific workers and all those interested in science.

Reminder! The authors are personally responsible for the correctness of the numbers, reports, data and the correctness of the quotations in the scientific articles included in the collection of journal materials.

Research Science and Innovation House

**"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE" LLC**

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

# LISONIY O‘YINLARNING VAZIFAVIY O‘ZIGA XOSLIGI

**J.I.Mizrabova** BuxDU Phd, dotsenti
mizrabova@inbox.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada lisoniy o‘yinlar kontekstida kalamburning vazifaviy o‘ziga xosligi, lisoniy o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari, tildagi leksik tasniflanishlarning lisoniy o‘yinlarning yuzaga kelishidagi ahamiyati va estetik-yumoristik ta’siri masalalariga e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** lisoniy o‘yinlar, kalambur, til, yumor, kontekst, voqelik, so‘zning zohiriy tomoni, so‘zning botiniy tomoni.

## ХАРАКТЕРИСТИКА ЯЗЫКОВЫХ ИГР

**Анотация.** В данной статье основное внимание уделяется функциональной специфике каламбуров, особенностям языковых игр, значению лексических классификаций в языке при возникновении языковых игр, а также их эстетическому и юмористическому эффекту.

**Ключевыые слова:** языковые игры, каламбуры, язык, юмор, контекст, реальность, внешняя сторона слова, внутренняя сторона слова.

## CHARACTERISTICS OF LANGUAGE GAMES

**Abstract.** This article focuses on the functional specificity of puns, the features of language games, the meaning of lexical classifications in language when language games arise, as well as their aesthetic and humorous effect.

Tilshunoslik ilmida “so‘z o‘yini”ni termin sifatida birinchilardan bo‘lib, L.Vitgenshteyn o‘zining “Falsafiy tadqiqotlar” asarida qo‘llagan. Tilshunos olimning fikricha: “Til bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday faoliyatni lisoniy o‘yin deb hisoblash joiz[36]”.

[36]Витгенштейн Л. Философские исследования // Витгенштейн Л. Философские работы. ЧастьI. -М.: Гиозис, 1994.- С. 75-319.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

Vaholanki, huddi quyosh o‘z nurlarida serqirra yoquti bahriyni o‘ynatib porlatganidek inson idroki ham har bir so‘zni har tomonlama yangi mazmunlarida jilovntira olish qobiliyatiga ega. Ma’lumki, lisoniy o‘yinlar komik ta’sirga ega. O‘z navbatida, poetik matnlarda ham lisoniy o‘yinlar tinglovchi yoki kitobxonni kuldirish, ko‘nglini ochish yoki xursand qilish niyatida qo‘llanilishi mumkin. Biroq, konkret bir vaziyatga oid qo‘llaniluvchi lisoniy o‘yinlarning maqsadi - o‘tkir so‘z, kalambur, hazil, latifa va h.k. kabi shakllarda namoyon etiladi. Bunday holatlarda lisoniy o‘yinlar komiklikka erishishdagi faqatgina bir tadbiri-chorasiga aylanib ma’lum bir yumoristik ta’sirga erishmoqlikda esa turli vositalar (parodiya, mubolag‘a, jo‘rttaga qilingan yanglishliklar, masxaramuz taqlid yoki kalaka, chalg‘ituvchi ayqash-uyqash betartibliklar, alohida bir xususiyatlarni bo‘rttirib ko‘rsatish, odatda qovushmaydigan predmet-hodisalar yoki xususiyatlarning to‘qnashuvi) ko‘magiga tayanadi.

Vaholanki, “til qat’iy tartibga solingan tizim bo‘lsa-da - u anchagina o‘ziga xos nozikliklardan iborat: “makammal, nozik ba’zida esa o‘z- o‘zini inkor etuvchi[37]” hodisadir. Tildagi aynan shunday noziklilar yohud ichki ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar va o‘ziga xos istisnolarni fosh etish yoki ko‘rsatib berish esa lisoniy o‘yinlar zimmasiga yuklatilgandir. Chunki, lisoniy *o‘yinlar* o‘ta murakkab hodisa bo‘lib uning mohiyati esa “tilda mavjud qonun-qoidalardan chekinish yoki tilda belgilangan me’yor-mezonlari chegaralari orasidagi muvozanatni saqlash”dan iborat bo‘lganligi bilan bir qatorda “…tildagi bu kabi og‘ishlar o‘ziga xos sistemaga ega bo‘lib, ma’lum bir qonun-qoidalarga bo‘ysingan holda shartlanadi[38]”.

Yuqorida zikr etilganidek, lisoniy o‘yinlarning vazifalaridan biri bu - tildagi o‘ziga xos nozikliklarni namoyon etishdan iboratdir. Tildagi bu kabi xosliklarni amalga oshirishda, xususan, *folklor yoki kichik adabiy janrlarda (latifa, maqol, aforizm, topishmoq) lisoniy o‘yinlarning* o‘rni cheksizdir. Vaholanki, inson voqelikni lisonda aks ettirar ekan unda u til tizimida belgilangan mezonlarga oid ish ko‘rib, til va voqelik o‘rtasidagi mutanosiblikni saqlashga harakat qiladi. Ammo, ba’zida ma’lum bir sabablarga ko‘ra odamlar mavjud voqelikdan chekinib ko‘proq til tomon yon bosadilar. Buning oqibatida esa lisoniy o‘yinlarining mavqei oshirilib so‘zlarni turlicha talqin etishdagi erkinligi kengayib boradi. Masalan, quyida misolimizdagi latifada

---

[37] Норман Б.Ю. Игра на гранях языка/ Б.Ю. Норман. – М.: Флинта: Наука, 2006. –С. 344. с. 10.
[38] Ko‘rsatilganmanba. c. 10.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

komiklikka erishish maqsadida *voqelik va til hodisalarining o‘rtasidagi chalkashligi asosida* qurilgan:

1. Бўйи етган қиз дугонасига: - Менга турмушга чиқишни таклиф қилишди.

Дугонаси: - Зўр-ку! Кимлар?
Қиз: - Ота-онам.

2. - Нимага Хитойда коррупцияга қарши кураш бизникига қараганда яхши натижа бериб келмоқда?
- Чунки Хитойда бунинг учун бюджетдан пул эмас ўқ-дори ажратишади.

Ma’lumki, tildagi leksik tasniflanishlarning o‘ziga xosligi ham lisoniy o‘yinlarning yuzaga kelishida xizmat qiladi. Binobarin, ba’zida tilda belgilangan tasniflar va ob’ektiv voqelikdagi sinfiy asoslar o‘rtasida nomutanosibliklar kuzatilishi mumkin. Har birimizning idrokimizda ba’zi predmetlar ma’lum bir guruhlarga uyushgan holda talqin etilishi tabiiy. Masalan, agarda bizdan kimdir kiyim-kechaklarni nomlab berishni so‘rasa biz tildagi odatiy maishiy tasniflanishga oid o‘rnashib ulgurgan va barchaga tanish bo‘lgan quyidagicha izchillikdagi kiyimlar nomlarini osongina sanab o‘tishimiz mumkin:

Kiyim – ko‘ylak, libos, ayollar ko‘ylagi, erkaklar ko‘ylagi, ustbosh, pal’to, kurtka, shapka, kostyum, pidjak va h.k.

Ammo, tan olishimiz kerakki bu kabi guruhlar zanjiri tasodifiy bo‘lib tildagi tasniflanishlarning nisbiy ekanligini ko‘rsatadi. Chunki, yuqorida keltirilgan kiyimlar ro‘yxatidagi ko‘ylak, libos, ustbosh kabilar, haqiqatdan ham kiyim – guruhiga aloqador bo‘lib ammo, ularning har biri yani, shapka, pal’to, kurtka kabilar – kiyimlar sinfining alohida bir turkumini tashkil etadi. Tildagi bu kabi masalalar doirasi keng va alohida ahamiyatga egadir. Tilning ichki qonuniyatlaridagi bunday murakkab munosabatlarning lisoniy o‘yinlarning yuzaga keltirishidagi mohiyati bilan e’tiborimizga molikdir. Tildagi bu kabi munosabatlarning o‘rni, ayniqsa, ma’lum bir sinfga aloqador so‘zlarning teng bog‘lovchilar yordamidagi birikmalarida yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Masalan, ota va ona, idish va tovoqlar, er va hotin, ona va bola, sut va qaymoq, kun va tun va h.k. kabi birikmalar barchaga tanish va normal holat bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, ota va amma, idish va ko‘katlar, er va arslon, bola va lola, sut va suv, kun va kunduz kabi birikmalari esa noodatiy bo‘lib tuyulsa-da til va nutqda uchrab turadi: idish va ko‘katlarni yuvmoq (oshxonada), bola va lola tasviri, suv

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

va sut aralashmasi va h.k. Mazkur holatdagi ya'ni, misol sifatida keltirilgan birikmalardagi turli turkumlarga tegishli bo'lgan birliklarning qatnashishi lisoniy o'yinlarni yaratishda ma'lum bir obekt vazifasini o'tashi mumkin. Yani, *teng bog'liqlik munosabatlariga kirishuvchi ma'lum bir guruhga oid bo'lgan so'zlarning aloqadorligidagi uzilishlar* ham lisoniy o'yinlar yaratish va komik ta'sirga erishishda qo'l keladi.

Masalan: "Yoshlik – kishi umrining bahori." (K.Yashin)

"Ko'nglida qori erisa ham muzi qoladi." (Shuhrat)

O'zingizni o'tga, suvga urganingizning nafi yo'q. (R,Fayziy. Hazrati inson.)

Yuqorida keltirilgan misollarda voqelikning turli sohalariga yohud turli tematik sinflarga tegishli bo'lgan so'zlarning biriktirilganligini kuzatishimiz mumkin.

Ma'lumki, tilning asosiy bosh birligi bu so'z. So'z bu belgi bo'lib uning ortida esa belgilanuvchi predmet turadi. Shuningdek, har bir belgi kabi so'z ham ikki pog'onadan iborat: birinchisi, nimani izohlayotganga qarab so'zning – mazmuni, belgisi, semantikasidan iborat bo'lsa, ikkinchisi esa nima orqali izohlayotganiga qarab yani, so'zning shakli va sirtini tashkil etadi. So'zning bu kabi ikki tarkibiy xususiyatlarni (izoh va shakl) uning zohiriy va botiniy tomonlariga ajratish mumkin. So'zdagi mazmun va izoh planlari o'rtasidagi munosabatlar "oila juftligi[39]"ning aloqalariga o'xshab ancha murakkab tabiatga ega. Bu kabi "juftliklar" munosabalarida har bir tomon ma'lum darajadagi o'zaro mustaqil, dahlsiz va ozod bo'lishga intiladi. Ba'zida so'z kontekst sharoitiga qarab mazmunini o'zgartiradi, ba'zida esa so'zning shakli o'z mavqeini suiiste'mol qilib ortiqcha erkinlikka yo'l qo'yadi. Odatda, gapiruvchi o'z izohidagi so'zlarning qay bir mazmun yoki shaklda ishlatganligi ko'proq o'zigagina ayon bo'lib, ba'zida kutilmaganda tasodifiy ma'nolarni ham qo'llashi mumkin. Masalan:

"... ўттизинчи йилларнинг охиридаги баъзи газеталарни варақлаб кўринг. Каминага қарши қилич яланғочлаб чиққан мақолаларни ўқиш бахтига муяссар бўласиз" (О.Ёқубов. Диёнат)

"Пахтакорман", деб кўкрагингизга урасизу-у, кўрпангизга пахта тополмайсиз"; "Биз янги машина келар экан", деб дўппимизни осмонга отиб

[39] Норман Б.Ю. Игра на гранях языка/ Б.Ю. Норман. – М.: Флинта: Наука, 2006. –С. 344. с. 38.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

юрамиз”; “Икки марта Тошкентга борганман”, деб мақтанасиз, одамлар “Оқ денгизу Қора денгиз” қилиб юришибди” (Ш.Бошбеков. Темир хотин)

“ - ...оғзи айғоқ, тили тайғоқ” одамлар тоифасидан бўлманг, дўстим.” (С.Кароматов. Олтин қум.)

“Эй бахтларни балоғатга етказган она” (Ҳ.Олимжон. Шеърлар.)

“Ҳозир фақатгина ит эмас, эшак ҳам эгасини танимайдиган замон” (Ўзб. Адабиёти ва санъати. 3.05.91).

“- Ишлар қалай? – Қалай эмас, кумуш. Тилла бўлишига сал бор” (С.Ахмад. Уфқ.)

Yuqoridagi turli asarlar qahramonlari xalqona nutqidagi misollarda keltirilgan *lisoniy o‘yinlar matni sodda va ularning mazmunini tushunishda kitobxondan maxsus tayyorgarlkni talab etilmaydi*.

Yuqorida zikr etilganidek so‘zning birinchi tomoni yani, uning mazmuni va semantikasini tashkil etib, aslida, ularning polisemantik yoki omonimik xosliklari til konventsiyalari doirasida belgilab berilganligi barchamizga ma’lumdir. Biroq, omonimlar va polisemik birliklar lisoniy o‘yinlar muhitiga tushib qolganda o‘zlarini “suvdagi baliqdek his etadilar[40]” va lug‘atlarda belgilangan mazmunlaridan tashqari okkazionallik, tasodifiylik kasb etadilar. Xususan, keng tarqalgan ko‘plab hazillar, o‘tkir gaplar bitta kontekstdagi shakldosh ammo, mazmunlari farq qiluvchi birliklarning turlicha aloqadorlikdagi to‘qnashuv va munosabatlariga asoslangandir. Bu kabi “*lisoniy o‘yinlarning* ko‘rinishi *kalambur[41]”* deb nomlanadi.

1. “Қумри (ачиниб). ...Ечолмайман дадаси, мендан хафа бўлманг... Қишлоқнинг оқсоқоллари тушлик пайтида келамиз, бўлмаса думини ушлатмайди, деб кетишди.

Қўчқор. Нима, менинг думимни ушлашдан бошқа иши йўқ эканми? Кап-катта одамлар-а” (Ш.Бошбеков. Темир хотин).

2. Кеча ишхонамизда ҳақиқат куни қилдик. Ҳаммамиз ҳақиқат изладик. Бугун энди, ҳаммамиз янги иш излаяпмиз.

---

[40]Норман Б.Ю. Игра на гранях языка/ Б.Ю. Норман. – М.: Флинта: Наука, 2006. –С. 344. с. 86.
[41]Ko‘rsatilgan manba. c. 87.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

Yuqoridagi *kalambur kabi lisononiy o'yiniga* asoslangan latifalar vaziyatlarida kutilmaganda tasodifiylik kabi psixologik effekti keltirilgan. Yani, tiglovchi ma'lum bir shaklni uning qaysidir mazmunida anglaydi, gapiruvchi esa kutilmaganda mazkur shaklni boshqa ma'nolarga yetaklaydi. Buning natijasida yuzaga kelgan ma'noviy tafovutlar fahmlangandan keyin esa anglashilmovchilik o'rni latifaga xos bo'lgan hursandchilik va zavq bilan almashadi. Shuningdek, kalambur vositasi mezonlari nafaqat latifalar balki, turli folklor va adabiy janrlarida ishtirok etishi mumkin (masal, to'rtliklar, hazilona she'riy asarlar, qisqacha hajviy she'rlarda va h.k.).

**Adabiyotlar:**


1. Витгенштейн Л. Философские исследования // Витгенштейн Л. Философские работы. Часть I. -М.: Гиозис, 1994.-С. 319.
2. Норман Б.Ю. Игра на гранях языка/ Б.Ю. Норман. – М.: Флинта: Наука, 2006. –С. 344.
3. Москвин В.П. Выразительные средства современной русской речи. Тропы и фигуры. Терминологический словарь. – Ростов н/Д, 2007. С.356.
4. Koestler A. The Act of Creation. – London: Hutchinson, 1964. – 751 p.
5. Mizrabova J.I. Translations of William Shakespeare's Tragedy «Hamlet» In Uzbek Literature Studies. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) -P. 1546-1550ISSN: 2278-3075, Volume-8, Issue-9S3, July 2019. Retrieval Number: I33230789S319/2019©BEIESPDOI: 10. 35940/ijitee.I332.0789S31.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

«JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH» VOLUME-2, ISSUE-5 (May)

TABLE OF CONTENTS


| | | |
|---|---|---|
| 1 | **A COMPARATIVE STUDY OF ICT STOOL ANTIGEN, SERUM AND ELISA TECHNIQUES IN DETECTION OF *HELICOBACTER PYLORI* AMONG SUDANESE FOOD HANDLER** Mohammed Shams Alfalah, Abdelhafez Awad Elkarim Ahmed,,Yousif Abdelhameed Mohammed, Albadawi Abdelbagi Talha | 7-13 |
| 2 | **ЭХИНОКОКЭКТОМИЯ ОПЕРАЦИЯДАН КЕЙИН ЖАРРОҲ ТАКТИКАСИНИ БАҲОЛАШ** Бўронов Салим Саидмуродович | 14-17 |
| 3 | **ЭФФЕКТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ЛЕЧЕНИЮ БОЛЬНЫХ ХРОНИЧЕСКИМ ГЕПАТИТОМ ПРОЖИВАЮЩИХ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ** Абдуллаев Равшанбек Бабажонович, Мансурбеков Дадахон Мансурбекович, Бахтиярова Азиза Максудбековна | 18-22 |
| 4 | **IQTISODIY TAKOMILLASHISHDA TADBIRKORLIK G'OYALARI VA SOLIQNING AHAMIYATI** Nuriddin Murodov, Ashurova N | 23-28 |
| 5 | **IDENTIFYING CSR RATE IN UZBEK COMPANIES** Pokiza Eshkuvatova | 29-37 |
| 6 | **TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT TEKSHIRUVLARI O'TKAZISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI** Bobonazarov Suxrob | 38-42 |
| 7 | **IQTISODIYOTNING REAL SEKTOR KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH** Shaymatov Elyor Shaxobiddin o'g'li | 43-48 |
| 8 | **ZAMONAVIY UROLOGIYADA IDIOPATIK GIPERAKTIV QOVUQ KASALLIGINI DAVOLASHDA BOTULINOTOKSIN TERAPIYASI** Boyqulov To'rabek Temirovich, Boyqulov Asadbek Temurovich, Abdisattorov Ozodbek Abdumannon o'g'li | 49-59 |
| 9 | **AVTOMOBIL YO'LLARINI LOYIHALASHDA ZAMONAVIY INFORMATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI** Qodirova Mahliyo Zafar qizi, Eshquvvatov Ulug'bek Abdulla o'g'li | 60-65 |

| | | |
|---|---|---|
| 10 | **ANALYTICAL MODEL OF ENERGY DETERMINATION VERTICAL VIBRATIONS WITH MULTI-NUMBER AND MULTI-LEVEL DAMPING OF MOBILE MACHINES ACCOUNTING FOR ROAD IRREGULARITIES** Matmurodov Farkhod Matkurbonovich, Khalikov Abdiravub Mamarakhimovich, Borisenko Ivan Borisovich, Bayzakov Takhir Mirzanovich | 66-77 |
| 11 | **ADDRESSING JAWBONE DEFECTS POST-COVID-19 COMPLICATIONS: A MULTIDISCIPLINARY APPROACH TO COMPLEX TREATMENT** Ruziyeva S.S., Allaberdiyeva Z.Sh. | 78-81 |
| 12 | **ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ ДЕФИНИЦИЙ ЛИКВИДНОСТИ И ПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ** Субханова М.А.,Тураев Б.Э. | 82-89 |
| 13 | **МАКТАБАГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ** Йўлдошева Соҳиба Азамат қизи | 90-96 |
| 14 | **ERKIN VOHIDOV DOSTONLARI ASOSIDA INSHO TASHKIL ETISH USULLARI** M.Hazratqulov, H.Boltayeva | 97-101 |
| 15 | **KASB HUNAR MAKTABLARIDA DUAL TA’LIMNING ASOSIY XUSUSIYATLARI HAMDA UNING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI** **b**Berdimuratov Duysenbek Aytbayevich | 102-106 |
| 16 | **DEVELOPMENT OF A NUMERICAL ALGORITHM BASED ON THE FINITE ELEMENT METHOD FOR STUDYING FLOWS IN CHANNELS** S.K. Abdukhamidov | 107-112 |
| 17 | **WEB SITE RELIABILITY ANALYSIS USING THE PYTHON PARSING METHOD** Dmytro Gurin, Svitlana Maksymova, Vladyslav Yevsieiev, Ahmad Alkhalaileh | 113-126 |
| 18 | **O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH. O‘QUVCHILARNING DARSDAN TASHQARI TARBIYABIY JARAYONLARDA MA’NAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH** Omonqulova Zilola Botir qizi, Ahmedova Iroda Shoimnazar qizi, Husanova Lobar Nurmuhammad qiz | 127-131 |
| 19 | **ВЛИЯНИЕ ШОПИНГ-ТУРИЗМА НА ГЛОБАЛЬНУЮ И МЕСТНУЮ ЭКОНОМИКУ** Усманова Азизахон Фазыловна, Абдурахманова Комила Рахимовна | 132-139 |

| | | |
|---|---|---|
| 20 | **ANALYSIS OF HIGH HOUSING PRICES IN UZBEKISTAN AND IMPACT OF ISLAMIC FINANCING.** Jiyanov O‘ktam, Alimova Munavvar | 140-147 |
| 21 | **DEVELOPMENT OF STUDENTS’ READING COMPETENCE WITHIN ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES AT TASHKENT INSTITUE OF CHEMICAL TECHNOLOGY** Mukaddas Musakhonovna Shokirova | 148-155 |
| 22 | **ВЗАИМОСВЯЗЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО РЕАГИРОВАНИЯ У БОЛЬНЫХ С ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА** Умарова. Д.Т. | 156-160 |
| 23 | **IMPORTANCE OF MATHEMATICS IN GEODESIC WORKS** A.S.Yo‘ldoshaliyev, O.M.Mamalatipov | 161-166 |
| 24 | **ISSUES OF STUDYING HUMAN MENTAL STATE IN VARIOUS DISCIPLINES** Zakirova Dilorom Yuldashevna | 167-175 |
| 25 | **DUAL TA’LIM TIZIMINING AHAMIYATI** Jo'raqulova Gulxayo Rizo qizi | 176-179 |
| 26 | **BOSHLANG’ICH SINF DARSLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH VA O’QUVCHILARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI HAQIDA BOSHLANG’ICH TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH** Tog’ayeva Sevinch Komiljon qizi | 180-185 |
| 27 | **ОПЫТ ПРИМЕНЕНИЯ ПУНКЦИОННОЙ ВЕРТЕБРОПЛАСТИКИ ОСТЕОПОРОТИЧЕСКИХ КОМПРЕССИОННЫХ ПЕРЕЛОМОВ ПОЗВОНОЧНИКА** Мелибоев С.Т, Кушбаков А.М | 186-188 |
| 28 | **BINOLARDAN SAMARALI VA TEJAMKOR FOYDALANISH ASOSIDA UY-JOY QURILISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI** Norqobilov N, Abdullaev J | 189-193 |
| 29 | **TERRITORIAL CHARACTERISTICS OF TRADITIONAL RESIDENTIAL BUILDINGS IN UZBEKISTAN (KHORAZM AND BUKHARA)** Akhmedova Firuza Ma'rufjonovna, Nazarova Dinara | 194-198 |
| 30 | **ТУРИЗМ В БУДУЩЕМ: ТРЕНДЫ, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ** Пайшанова Маржона | 199-205 |

| | | |
|---|---|---|
| 31 | **O‘ZBEKISTONNING AFG‘ONISTON BILAN DO‘STLIK, MADANIY-MA’RIFIY, TA’LIM HAMDA ILM-FAN SOHALARIDAGI HAMKORLIGI** Jabborov Sunnatilla Ilhomjon o‘g‘li | 206-213 |
| 32 | **ZOL-GEL TEXNOLOGIYASI BO’YICHA NANOKOMPOZIT MATERIALLAR ISHLAB CHIQISH** Xodiyeva Nargiza Djurakulovna, Ortiqov Shodiyor, Abduraxmonova Zamira Ergasgboyevna, Eshkobilova Mavjuda Ergashboyevna | 214-222 |
| 33 | **JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG‘INING DAVLAT BUDJETI TUSHUMLARIDAGI O‘RNI VA UNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI** Yadgarov Sherzod Xolmurodovich | 223-233 |
| 34 | **УЗБЕКИСТАН: ПОЧЕМУ СТРАНА НЕ ИНВЕСТИРУЕТ В ПОДЗЕМНЫЕ ЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ КАБЕЛИ, КАК ЭТО ДЕЛАЮТ В СИНГАПУРЕ**? Усманова Азизахон Фазиловна, Холназарова Озода | 234-240 |
| 35 | **СОБЫТИЙНЫЙ ТУРИЗМ И ЕГО РАЗВИТИЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН** Эпштейн.С, Усманова .А | 241-251 |
| 36 | **СПОРТИВНЫЕ ВИДЫ ОТДЫХА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ТУРИЗМ** Усманова Азизахон Фазыловна, Азенов Диёрбек Дониёрбек угли | 252-261 |
| 37 | **ЧЕРТЫ РУССКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ХАРАКТЕРА В ОБРАЗЕ РУСЛАНА. (по поэме А. С. Пушкина «Руслан и Людмила»)** Аблаева Надира Кадамжановна, Сапарбаева Саодатжон Бахтияровна | 262-269 |
| 38 | **ИСТЕЪМОЛЧИЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ЭЛЕКТРОН ТИЖОРАТ СОҲАСИДА ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТДАН МУСТАҲКАМЛАНИШИ** Ихтиёр Адуразаков | 270-273 |
| 39 | **СИСТЕМА ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И МОНИТОРИНГА ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ В ПРОГРАММЕ ГИС.** Djabbarova N. B, Tulaganov B. A, Usmanov S. M | 274-281 |
| 40 | **“HATAM-TAY” DOSTONIDA SUJET VA MOTIVLAR** Abdullayev Xotamjon Xamrayevich | 282-288 |
| 41 | **АЗИАТСКАЯ КУХНЯ ПРОТИВ ЕВРОПЕЙСКОЙ** Мурoджонова Муниса Умиджон қизи, Турдиалиева Хонзода Бакиржоновна, Усманова .А | 289-299 |

| | | |
|---|---|---|
| 42 | **ТУРИЗМ РАНЬШЕ И СЕЙЧАС** Муратханова Мохира Махмудовна, Бахромова Шахзода Зиёджоновна, Усманова .А | 300-311 |
| 43 | **THEORETICAL ASPECTS OF DIGITAL MARKETING IN BRAND IMAGE PERCEPTION** Valieva Z.F, Valieva K.D. | 312-317 |
| 44 | **TARKIBIDA AZOT, OLTINGUGURT, FOSFOR SAQLAGAN OLIGOMERLAR SINTEZI** Ilhomova M.I, Eshboyeva M.T, Normurodov B.A, Eshankulov X.N, Boltayev N.S | 318-322 |
| 45 | **ОСНОВЫ МЕДИТАЦИИ** Каримова Сардора Рахматуллаевна, Исакжанова Эъзоза Шухратовна | 323-327 |
| 46 | **PATHOMORPHOLOGY OF BREAST CANCER** Amonova Gulafzal Uzbekboyevna, Moaz Asif | 328-331 |
| 47 | **ЭВОЛЮЦИЯ ОПЕРАТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ВЛИЯНИЕ НА КЛИЕНТСКИЙ ОПЫТ** Давлятова Камилла, Усманова Азизахон Фазыловна | 332-345 |
| 48 | **АКТИВНЫЙ ТУРИЗМ** Усманова Азизахон Фазыловна, Розукулова Рушона Вахидовна | 346-354 |
| 49 | **ОСОБЕННОСТИ МОДНОГО ТУРИСТИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ И ЕГО ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ МОДНОГО ТУРИЗМА** Хусанова Малика Жахонгировна, Усманова Азизахон Фазыловна | 355-366 |
| 50 | **«RAMUZ ShAX» DÁSTANÍNDA QOLLANÍLǴAN LEKSIKALÍQ ANTONIMLER** G. Allambergenova, Shaxiyda Ibadullayeva | 367-371 |
| 51 | **PROKURATURA ORGANLARI HODIMLARINING KASB AXLOQI** Parizod Raxmatullayeva | 372-377 |
| 52 | **ПОЧЕМУ СКАНДИНАВСКИЕ СТРАНЫ САМЫЕ СЧАСТЛИВЫЕ**? Озода Орзикулова | 378-382 |
| 53 | **O‘G‘IRLIK JINOYATINING JINOIY HUQUQIY BELGILARI VA OLDINI OLISH CHORALARI.** Zarina Xursanova , Behruz Tursunov | 383-393 |
| 54 | **РАЗВИТИЕ МАРКЕТИНГА В УЗБЕКИСТАНЕ** Шахзода Алимова | 394-403 |
| 55 | **ГАСТРОНОМИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ** Марям Хусаинова | 404-413 |
| 56 | **AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARI** Ashurov Karomat Musurmonqulov | 414-416 |

| | | |
|---|---|---|
| 57 | **ЭТНИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ АСПЕКТЫ ДЕЛОВОГО ТУРИЗМА: ВЛИЯНИЕ НА КРОСС-КУЛЬТУРНОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ И БИЗНЕС-ОТНОШЕНИЯ** Усманова Азизахон Фазыловна, Абдуллаев Отабек Тохир угли | 417-427 |
| 58 | **РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОМ ДЕЛОВОМ ТУРИЗМЕ** Усманова Азизахон Фазыловна, Хамроева Сабина Абдувахид кизи | 428-436 |
| 59 | **«МАРКЕТИНГ В ИНСТАГРАММЕ»** Шакиров Амирхон Муроджонович, Усманова Азизахон Фазыловна | 437-444 |
| 60 | **ЭКО ТУРИЗМ В АЗИИ И ЕВРОПЫ** Усманова Азизахон Фазыловна, Абраева Шахзода Фахриддин кизи | 445-451 |
| 61 | **HUDUDLAR IQTISODIYOTIGA JALB QILINGAN XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH** Asoyeva Shiringul Rustamovna | 452-455 |
| 62 | **«ВТОРАЯ ШВЕЙЦАРИЯ»: РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА В МАЛЫХ РЕГИОНАХ НЕИЗВЕДАННОГОУЗБЕКИСТАНА.** Нусратова Феруза Ахрол кизи, Усманова Азизахон Фазыловна | 456-467 |
| 63 | **ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В СФЕРЕ МЕДИЦИНЫ** Курвонова Шахзода, Усманова Азизахон Фазыловна | 468-478 |
| 64 | **KOMPANIYALARDA AKSIYADORLARNING ROLLARI VA HUQUQLARINI YAXSHILASH** Qarshiboyeva Dilnozaxon Erkinboy qizi | 479-495 |
| 65 | **ХАРАКТЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АГРЕГАТНЫХ СВОЙСТВ ТРОМБОЦИТОВ У ПАЦИЕНТОВ С ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА** Нормуминов Э.У., Хонтураев И.А., Маматкулов.Ж.Ш | 496-504 |
| 66 | **MUSO TOSHMUHAMMAD O‘G‘LI OYBEKNING BOLALIK QISSASI TASNIFI** Qodiriy Firdavsxon Nodirjon qizi | 505-508 |
| 67 | **ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В СФЕРЕ МЕДИЦИНЫ** Курвонова Шахзода, Усманова Азизахон Фазыловна | 509-519 |
| 68 | **ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI** Mardonova Sitora Panji qizi | 520-524 |
| 69 | **LISONIY O‘YINLARNING VAZIFAVIY O‘ZIGA XOSLIGI** J.I.Mizrabova | 525-530 |